

“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Davlat aktivlarini boshqarish
agentligi direktori, Komissiya raisi

_____ A. Ortikov
“ 19 ” aprel 2023-yil

**Davlat ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashi tarkibiga davlat
ulushi bo‘yicha nomzodlarni tanlab olish komissiyasi yig‘ilishining
01-03-08-1/1-sonli BAYONI**

2023-yil “19” aprel

Toshkent shahri

- Raislik qildi:** A. Ortikov — Davaktiv agentligi direktori — Komissiya raisi
- Qatnashdilar:** A. Miraliyev — Davaktiv agentligi direktori o‘rinbosari — Komissiya a‘zosi
- J. Nasirov — Davaktiv agentligi direktorining xorijiy maslahatchisi — Komissiya a‘zosi
- T. Nabiyeu — Davaktiv agentligining Strategik rejalashtirish, metodologiya, tarkibiy bo‘linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish va ijro intizomi nazorati yig‘ma axborot-tahlil departamenti boshlig‘i — Komissiya a‘zosi
- U. Gaziyeu — Davaktiv agentligining Shartnomaviy-huquqiy munosabatlar va da’vo ishlarini yuritish bo‘yicha yuridik boshqarma boshlig‘i — Komissiya a‘zosi
- Sh. Sofarov — Davaktiv agentligining Mulkdor huquqlari va funksiyalarini ta‘minlash boshqarmasi Davlat ishtirokidagi korxonalarning boshqaruv va nazorat organlarini shakllantirish bo‘limi boshlig‘i — Komissiya kotibi

KUN TARTIBI:

Davaktiv agentligi ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashi tarkibiga davlat ulushi bo'yicha nomzodlarni ko'rsatish uchun tanlov e'lon qilish to'g'risida

(Ortikov, Miraliyev, Nasirov, Nabiyeu, Gaziyeu, Sofarov)

“Davlat mulkini boshqarish to'g'risida”gi Qonunining 44-moddasiga ko'ra: davlat ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashi a'zoliciga davlat ulushi bo'yicha nomzod tegishincha Davaktiv agentligi, maxsus vakolatli davlat organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan tuzilgan tanlov komissiyasi tomonidan tanlanishi;

davlat ishtirokidagi korxonalarning davlat ulushi bo'yicha kuzatuv kengashi a'zolarini tanlash qoidalari (tanlov reglamenti) Davaktiv agentligi tomonidan ishlab chiqilishi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanishi belgilangan.

O'z navbatida, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-noyabrdagi 647-son qarori bilan Davlat ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashi tarkibiga davlat ulushi bo'yicha nomzodlarni tanlab olish tartibi to'g'risida nizom (keyingi o'rinlarda — Nizom) tasdiqlangan.

Nizomga ko'ra, davlat ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashlari tarkibiga davlat ulushi bo'yicha nomzodlar Davaktiv agentligi tomonidan tuziladigan komissiya tomonidan tanlov asosida saralab olinishi belgilangan.

Shunga ko'ra, nomzodlarni tanlab olish uchun Davaktiv agentligining 2022-yil 8-noyabrdagi 316-son buyrug'i bilan Davlat ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashi tarkibiga davlat ulushi bo'yicha nomzodlarni tanlab olish komissiyasi (keyingi o'rinlarda — Komissiya) tarkibi, keyinchalik Davaktiv agentligining 2023-yil 3-apreldagi 65-son buyrug'i bilan Komissiya yangi tarkibda tasdiqlangan.

O'z navbatida, Nizom talablariga ko'ra Komissiya tomonidan maxsus veb-portal www.cns.davaktiv.uz ma'lumotlari asosida davlat ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashi tarkibidagi mavjud bo'sh a'zolik o'rinlari, shuningdek kuzatuv kengashining amaldagi a'zolari vakolatlarini muddatidan oldin tugatish oqibatida yuzaga keladigan bo'sh a'zolik o'rinlari ro'yxatini shakllantirish, shuningdek nomzodlarga qo'yiladigan talablarni, ularni izlash usullarini belgilagan holda tanlov e'lon qilinadigan a'zolik o'rinlari ro'yxatini tasdiqlash belgilangan.

Joriy yilning 1-aprel holatiga maxsus veb-portal www.cns.davaktiv.uz ma'lumotlariga ko'ra, jami 341 ta davlat ishtirokidagi korxonalarida kuzatuv kengashlari tashkil etilgan, shundan:

- 49 ta korxonalarning kuzatuv kengashiga davlat ulushi bo'yicha nomzodlar Strategik islohotlar agentligi bilan kelishilgan holda shakllantiriladi (31 ta PQ-83-son qarorining 1-ilovasiga kiritilgan korxonalar va tijorat banklari, 16 ta PF-6096-son Farmonning 1 va 2-ilovalariga kiritilgan korxonalar va 2 ta tijorat banklari, ya'ni "Ipotekabank" ATB va "Poytaxtbank" ATB);

- 62 ta korxonalar (shundan Davaktiv agentligi ishtirokida 55 ta) ustav kapitalida davlat ulushi 50 foizdan past bo'lgan korxonalar bo'lib, ushbu korxonalarning kuzatuv kengashi tarkibiga davlat ulushi bo'yicha nomzodlar aksiyador (ta'sischi) funksiyalarini amalga oshirayotgan davlat organlari takliflari asosida shakllantiriladi;

- 153 ta mahalliy hokimliklar ta'sischi ligidagi bozorlar va savdo komplekslarining kuzatuv kengashlari tarkibiga nomzodlar "Davlat mulkini boshqarish to'g'risida"gi Qonunga asosan hokimliklar tomonidan shakllantiriladi;

- 77 ta korxonalar (shundan Davaktiv agentligi ishtirokida 67 ta) kuzatuv kengashi tarkibiga nomzodlar tanlov asosida shakllantiriladi.

Shundan, 10 tasida aksiyador (ishtirokchi) funksiyalari boshqa vazirlik va idoralar tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda.

67 ta korxonalarda aksiyador (ishtirokchi) funksiyalari Davaktiv agentligi tomonidan amalga oshirilayotgan bo'lib, shundan 6 ta korxonalar, ya'ni "Elektrqishloqqurilish" AJdagi davlat ulushi sotilganligi, "Qashqadaryoneftgazishchita'minot" AJ va "Bo'ston olami" MCHJlar faoliyatsizligi, "Baxt-X" MCHJ, "Jarqo'rg'on dehqon (ozuq-ovqat) bozori" MCHJ va "Gurlan universal savdo kompleksi" MCHJdagi davlat ulushi mahalliy hokimliklar ta'sischi ligiga o'tkazilayotganligi sababli tanlov o'tkaziladigan korxonalar ro'yxatiga kiritilmadi.

Qolgan 61 ta korxonalarning kuzatuv kengashi tarkibiga davlat ulushi bo'yicha nomzodlarni tanlab olish maqsadida, tanlov e'lon qilinadigan a'zolik o'rinlari ro'yxatini, nomzodlarga qo'yiladigan talablarni tasdiqlash lozim.

O'z navbatida, Nizomning 7-bandida davlat ulushi bo'yicha kuzatuv kengashi a'zolikiga nomzod bo'la olmaydigan shaxslar doirasi belgilangan bo'lib, unga ko'ra:

- korporativ boshqaruvchi malaka attestatiga ega bo'lmagan shaxslar, qonunchilik hujjatlariga binoan korporativ boshqaruvchi malaka attestatini olish talab etilmaydigan shaxslar bundan mustasno;

- oliy ma'lumotga ega bo'lmagan;

- kamida 2 yillik ish tajribasiga ega bo'lmagan;

- korxona boshqaruvi a'zolari va direktori yoki ularning funksiyalarini amalga oshirayotgan shaxslar, korxonada yoki uning shu'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarida mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar;

- iqtisodiy jinoyatlar yoki boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar uchun sudlanganligi mavjud hamda sud qarorlariga asosan mansab lavozimlarini egallashi cheklangan, shuningdek korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslar;

- davlat boshqaruvi organlarining korxonaga nisbatan tartibga soluvchi yoki nazorat (shu jumladan, litsenziyalash organlari va moliya-xo'jalik faoliyatini tekshiruvchi organlar) funksiyasini amalga oshiruvchi xodimlari;

- qonunchilik hujjatlarida kuzatuv kengashi a'zosi sifatida faoliyat olib borishi taqiqlangan shaxslar;

- besh va undan ortiq kuzatuv kengashlarida a'zo bo'lgan shaxslar, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

- so'nggi uch yil ichida korxonaga va (yoki) korxonaning affillangan shaxslariga auditorlik xizmatlarini ko'rsatgan auditorlik tashkilotining xodimi.

Shuningdek, Nizomning 8-bandida korxona faoliyati yo'nalishidan kelib chiqib, Komissiya tomonidan nomzodlarga qo'shimcha talablar belgilanishi mumkinligi belgilangan.

Kun tartibidagi masala atroflicha muhokama qilingandan so'ng, komissiya **QAROR QILDI:**

1. Quyidagilar:

a) "Davlat mulkini boshqarish to'g'risida"gi Qonunining 44-moddasiga asosan:

davlat ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashi a'zolariga davlat ulushi bo'yicha nomzod tegishincha Davlat agentligi, maxsus vakolatli davlat organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan tuzilgan tanlov komissiyasi tomonidan tanlanishi;

davlat ishtirokidagi korxonalarning davlat ulushi bo'yicha kuzatuv kengashi a'zolarini tanlash qoidolari (tanlov reglamenti) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanishi belgilanganligi;

b) Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-noyabrdagi 647-son qarori bilan Davlat ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashi tarkibiga davlat ulushi bo'yicha nomzodlarni tanlab olish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlanganligi, unga ko'ra:

- nomzodlarning arizalarini maxsus veb-portal orqali qabul qilish;
- Davaktiv agentligida nomzodlarni saralash komissiyasi tuzilishi hamda ushbu komissiya tomonidan nomzodlarni belgilangan mezonlar asosida tanlab olinishi;
- Komissiya tomonidan maxsus veb-portal www.cns.davaktiv.uz ma'lumotlari asosida davlat ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashi tarkibidagi mavjud bo'sh a'zolik o'rinlari, shuningdek kuzatuv kengashining amaldagi a'zolari vakolatlarini muddatidan oldin tugatish oqibatida yuzaga keladigan bo'sh a'zolik o'rinlari ro'yxatini shakllantirish, shuningdek nomzodlarga qo'yiladigan talablarni, ularni izlash usullarini belgilagan holda tanlov e'lon qilinadigan a'zolik o'rinlari ro'yxatini tasdiqlash;
- Komissiya tomonidan tasdiqlangan a'zolik o'rinlari ro'yxatini maxsus veb-portalga joylashtirish;
- Komissiya 30 kun davomida nomzodlarni izlash choralarini ko'rishi, bunda nomzodlarni izlash maxsus veb-portal orqali e'lonlar berish yoki maxsus veb-portalda ko'rsatgan holda nomzodlarni izlab topishga ixtisoslashgan konsalting va (yoki) yuqori malakali mutaxassislarni va rahbar kadrlarni qidirish va yollash bilan shug'ullanuvchi maxsus "headhunter" tashkilotlarini jalb etish orqali amalga oshirilishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Davaktiv agentligi ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashi tarkibiga davlat ulushi bo'yicha nomzodlarni ko'rsatish uchun tanlov e'lon qilinadigan korxonalar va ularning kuzatuv kengashi tarkibidagi a'zolik o'rinlari ro'yxati, nomzodlarga qo'yiladigan talablar va nomzodlarni izlash usullari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Davaktiv agentligining Davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ munosabatlarni ta'minlash departamenti:

- 2 ish kun ichida tasdiqlangan ro'yxat asosida tanlov e'lon qilinadigan korxonalar va ularning kuzatuv kengashi tarkibidagi a'zolik o'rinlari ro'yxatini hamda

nomzodlarga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi ma'lumotlarni Davaktiv agentligining www.cns.davaktiv.uz maxsus veb-portaliga belgilangan tartibda joylashtirilishini;

- 30 kun davomida Axborot va jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi bilan birgalikda e'lon qilingan tanlovlar to'g'risida keng jamoatchilikni xabardor qilish, shu jumladan Davaktiv agentligining rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali keng yoritish choralari ko'rsin.

4. Tanlovlarda nomzodlardan arizalarni qabul qilish 30 kun davomida amalga oshirilsin hamda arizalarni qabul qilishning boshlanish sanasi e'lon qilingan tanlovlar to'g'risidagi ma'lumotlar maxsus veb-portalga joylashtirilgan sana etib belgilansin.

5. Mazkur bayon ijrosini ta'minlash komissiya kotibi Sh. Sofarov zimmasiga yuklansin.

Komissiya a'zolari:

A. Miraliyev

J. Nasirov

T. Nabiyeu

U. Gaziyeu

Sh. Sofarou

